

O‘RMON XO‘JALIGI YERLARIDA DORIVOR O‘SIMLIKLARNI YETISHTIRISH BO‘YICHA MAMLUKAT MIQYOSIDAGI QAROR VA BUYRUQLAR

Abraxmatov Himoyiddin Umbarqulovich
ToshDAU, magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘rmon xo‘jaligi yerlarida dorivor o‘simliklarni yetishtirish bo‘yicha tavsiyalar va metodik usullari hamda qilinayotgan ishlar haqida ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlari: Dorivor o‘simliklar, yetishtirish texnologiyasi, o‘rmon, samaradorlik, aholi.

Annatation. This article provides information on the recommendations and methodical methods of cultivation of medicinal plants in forestry lands, as well as the work being done.

Key words: Medicinal plants, cultivation technology, forest, productivity, population.

Аннотация. В данной статье представлена информация о рекомендациях и методических приемах возделывания лекарственных растений в лесохозяйственных угодьях, а также о проводимых работах..

Ключевые слова: Лекарственные растения, технология возделывания, лес, продуктивность, популяция.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan taklif etilgan klaster tizimi o‘zining hozirgi globallashuv davrida va bozor iqtisodiyoti talablari asosida, har bir imkoniyatdan to‘liq va samarali foydalanib jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlarni yetkazib berish agrar sektorda, jumladan paxtani yetishtirishdan to uni kompleks qayta ishlab, tayyor mahsulot sifatida yengil sanoat mahsulotlari, oziq ovqat sanoati mahsulotlari (paxta yog‘i va undan tayyorlanadigan mahsulotlar) hamda chorvachilik uchun ozuqa (har xil yemlar, premikslar) ishlab chiqarish imkoniyatlarini keskin oshirib, agrar sohada yangi tizim klaster tizimi yaratilganini e‘tirof etish kerak.

Qarorda qo‘yilgan vazifalar tashkil etilayotgan klasterlar oldiga dorivor o‘simliklarni yetishtirish, saqlash, dastlabki va chuqur qayta ishlash hisobiga turli xil xalq tabobatida, sog‘liqni saqlash tizimida ishlatiladigan dori preparatlarini yaratish, ishlab chiqarish va importdan kirib kelayotgan shu yo‘nalishdagi preparatlarni o‘rnini ma‘lum hajmda egallash va eksport qilish imkoniyatini yaratadi. Qarorda shu yilning 1 iyunidan tayyor mahsulotni sotish bo‘yicha klasterlar oldiga qo‘yilgan vazifalar “Dorivor o‘simliklar” deb nomlangan yangi sanoat yo‘nalishini yaratadi.

2020 yil 1 iyundan buyon tibbiy muassasalarda, jumladan, oilaviy poliklinikalar va qishloqlar (ovullar) tibbiy markazlarida fito-barlar, barcha vazirlik va idoralarda, “Islom Karimov” nomidagi xalqaro va mahalliy aeroportlarda, barcha turdagi avtovokzallarda, temir yo‘l stansiyalarida, bozorlarda, sanatoriya muassasalari va barcha gavjum joylarda fitobarlar yaratiladi. Bugungi kunda

fitobarlarni yaratish foydali innovatsion g'oyaga aylanib, aholining barcha qatlamlariga xalq tabobatining an'anaviy mahsulotlaridan samarali foydalanish imkonini beradi (choy, kokteyl, damlama va boshqalar), shuningdek boshlang'ich kapitalning nisbatan kam sarmoyasi bilan yaxshi biznes manbai bo'lib xizmat qiladi.

Qarorning so'zsiz ijrosi hozirgi davrda dorivor o'simliklarni yetishtirishdan to undan olingan mahsulotlarni bozorga yetkazib berish va ulardan xalqimiz salomatligini saqlashda xalq tabobati mahsulotlari hamda tabiiy dorivor preparatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu yo'nalishda yangi ish o'rinlari yaratiladi.

Dorivor o'simliklarning genofondini saqlab qolish va ko'paytirish usullaridan biri bu ularni madaniylashtirishdir. Introduksiya jarayoni (madaniylashtirish) juda murakkab, uzoq va ko'plab omillarga bog'liq, ya'ni: o'simliklarning kelib chiqishi, ularning ekologik tabiati, tabiiy o'sish joylarining iqlim va jug'rofiy sharoiti va kirib borish maydoni va boshqalar. Tabiatda yovvoyi holda o'sadigan shifobaxsh o'simliklarni madaniylashtirish qimmatbaho yuqori mahsuldor turlari va navlarini olish maqsadida ko'paytirishning keng qamrovini o'z ichiga oladi.

O'simliklarning tabiiy genofondini saqlab qolishning dolzarb vazifasi – bu ma'lum bir turning qaytarib bo'lmaydigan darajada yo'qolib ketishining oldini olish uchun gen banklarini yaratish, ya'ni ma'lum sharoitlarda yovvoyi o'simliklarning urug'lik zaxiralarini saqlashdan iboratdir. Bu ham qarorda ko'rsatib o'tilgan. Gen banklarini yaratish urug'larni saqlashning barcha masalalarini puxta o'rganishni nazarda tutadi.

Shifobaxsh o'simliklarning tabiiy zaxiralarini himoya qilish va ulardan oqilona foydalanishning o'simliklarni tabiiy o'sish joyidan qayta ishlash joyiga, ya'ni fitopreparatlarni tayyorlash joyiga o'tkazish bosqichidir. Avvalo, o'simliklarni to'g'ri yig'ish va quritishga taaluqlidir. Xom – ashyoni yig'ishda nafaqat turlarning tarqalishi, zaxiralari va mahsuldorligi, balki o'rim-yig'imdan keyin o'simliklarning tabiiy holatini tiklash qobiliyatini ham bilish kerak. Ushbu xususiyatlar to'g'risida ma'lumotlarning yetishmasligi va eng muhimi, yig'im-terim ishlarining yomon tashkil etilishi, ko'pincha bir necha yillik ishdan so'ng, avvalgi dorivor o'simliklar o'sadigan xududlar sezilarli yoki to'liq qurib ketishiga olib keladi.

Bu muammolarni tizimli hal qilish qarorda o'z aksini topgan. Fundamental fanning yutuqlariga asoslanib shifobaxsh o'simliklarni oqilona kompleks chuqur qayta ishlash texnologiyasi iqtisodiy samaradorlikni oshirish tizimlaridan biridir. Ba'zida bir dorivor preparatni o'simlikdan ajratib olinib, qolganlari behudaga ketadi. Olimlar iqtisodiy jihatdan tejamkor texnologiyalarga tayanib, dorivor xom-ashyoni chuqur va keng qamrovli qayta ishlash usullarini ishlab chiqishga intilmoqdalar. Masalan, qizilmiya ildizlari va ildizmevalari kompleks qayta ishlash texnologiyasi natijasida quruq ekstrakt, flavonoid (likviriton, flakarbin) va triterpen preparatlarini (glitsiram, glitsirrinat) olish mumkin.

Ilm-fanni innovatsion yuqori sifatli mahsulotlarni izlash va yaratishda yordam berayotganini misol keltirsak, dorivor o'simliklardan dunyodagi yetakchi ishlab chiqaruvchilardan biri bo'lgan "Bionorika" nemis kompaniyasining fitoniringidir. Ushbu kompaniya fitonirlashning o'ziga xos g'oyasidan foydalanadi, u an'anaviy davolash usullari sohasidagi bilimlarni dorivor o'simliklar va tabiiy fanlardagi innovatsion ilmiy tadqiqotlar natijalarini birlashtiradi.

O'simlik preparatining sifati va samaradorligi ko'p jihatdan uning tarkibiy qismlariga bog'liq bo'lganligi sababli qayta ishlovchi kompaniyalar o'simlik materiallariga eng yuqori talabni qo'yadi. O'simlik materiallarining doimiy sifati boshqariladigan va standartizatsiyalashtirilgan o'sib boradigan sharoit bilan ta'minlanadi.

Atrof muhit sharoiti, organik moddalarning yuqori konsentratsiyasi va qisqa transport yo'llari katta ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlari analitik hisob-kitoblar bilan tekshiriladi va murakkab tizimni anglatadi. Ilmiy ishlarda asosiy e'tibor nafas olish kasalliklari, ginekologiya, urologiya va og'riqlarga qaratilgan.

Chet el kompaniyalarining dorivor o'simliklaridan olingan mahsulotlari Respublikamizga import qilinadi, qabul qilingan qaror bu preparatlarni o'zimizda o'sadigan dorivor o'simliklardan olish imkoniyatini yaratadi. Misol tariqasida Bolgariyaning "Tribestan" (temirtikan o'simligi), Germaniyaning "Gelarium giperikum" (dalachoy o'simligi), Chexiyaning "Persen" (arslon quyruq o'simligi asosida), Rossiyaning "Ekstrakt valerian" (asorun ildizi va ildizpoyalari) katta miqdorda dori shaklida kirib keladi. Bu shifobaxsh o'simliklar o'zimizda ham o'sadi. Bularning ichidan faol moddalarni olish import hajmini kamaytirish imkonini beradi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan 10 aprelda qabul qilingan "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora tadbirlari to'g'risida"gi qaror shu muammolarni tizimli ravishda yechish imkoniyatini beradi.

Shu bilan birga ushbu qaror ijrosi kelgusida ta'lim, ilm-fan va ishlab chikarishni integratsiyasida katta yul ochib berishini ko'rsatmoqda, chunki tibbiyot sohasida malakali mutaxassislarni yetkazish borasida prezidentimizni kuni kecha respublikamizdagi tibbiyot kollejarini Ibn Sino nomidagi tibbiyot texnikumlarga aylantirish borasida hamda xalq tabobatini yanada rivojlantirish to'g'risidagi qarorlari chiqdi.

Bularning barchasi zamonaviy tibbiyotda va xalq tabobati sohasida malakali kadrlarni tarbiyalashda hamda mahalliy o'simliklarni chuqur qayta ishlab, xalqimiz sog'ligi uchun zarur dori vositalarni olishning ilmiy asosini yaratishda va olingan ilmiy tajribalarni farmatsevtik erkin iqtisodiy zonalarga transfer qilishda o'z aksini topadi, albatta.

Qabul qilingan qaror mamlakatimizning qimmatli dorivor o'simliklarini himoya qilish va ulardan foydalanish bilan bog'liq ilm-fan, biznes, xalq tabobati udumlari, farmatsevtika ishlab chiqarish imkoniyatlarini tartibga keltiradi.

Bugungi kunda respublikamizning barcha hududlarida, oʻrmon fondi hamda qishloq xoʻjaligi yerlarida dorivor oʻsimliklar yetishtiriladi. Ammo, dorivor oʻsimliklar yetishtiruvchilar har doim ham oʻz mahsulotlariga xaridor topmaganlar, dorivor oʻsimliklarni qayta ishlovchilar esa tabiiy dori vositalari uchun xomashyo tanqisligiga uchraganlar.

Endilikda farmatsevtika sanoati har yili dorivor oʻsimlik tur-lari va hajmi boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi va Innovatsion rivojlanish vazirliklari hamda Oʻrmon xoʻjaliklari davlat qoʻmitasiga maʼlumot kiritadi. Bu xomashyo yetkazib beruvchilarni kafolatli xaridini taʼminlaydi.

Qolaversa, bu fermer va boshqa dorivor oʻsimliklar yetishtiruvchilar uchun katta imkoniyat va kelajakka ishonch, degani. Endilikda dorivor oʻsimliklar yetishtiruvchilarga nafaqat ichki, balki tashqi bozorga sifat-li mahsulot yetkazib berish imkoniyati kengaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizning 148 ta korxonasi 2000 dan ziyod nomdagi dorivor vositalarni ishlab chiqarmoqda, bu esa bozor ulushining 55% dan ortigʻini tashkil etadi. Ushbu dorilar 35 farmokologik guruhlariga kiradi va tibbiyotning 28 yoʻnalishida foydalaniladi. 8500 dorilardan 6300 turi import qilinadi. Xalqaro tibbiy amaliyotda qoʻllaniladigan 350 dorivor oʻsimlikdan, respublikada sanoat plantatsiyalarida 71 turi yetishtiriladi.

Biz quyida shirinmiya dorivor oʻsimligining yetishtirilishi va sotilishi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar bilan tanishishimiz mumkin.

1.2-jadval.

Yetishtirgan oʻrmon xoʻjaliklarining nomi	Sotilgan xom ashyo miqdori		Sotib olgan korxonalar nomi
	Miq dori (ton na)	Sum masi (min g soʻm)	
SHIRINMIYA			
Taxtak oʻrmon xoʻjaligi davlat	15,0	9 000,0	“Lenekst Ekstrakt” MCHJ
Nukus davlat oʻrmon xoʻjaligi maxsus	54,0	5 400,0	“Даеюнгмедикал” MCHJ
Chimboy oʻrmon xoʻjaligi davlat	50,8	27 400,0	“BIO LIQUORICE EXTRACT” MCHJ
Xujayli oʻrmon xoʻjaligi davlat	160,0	424 500,0	“Shifobaxsh” MCHJ
Ellikqalʼa oʻrmon xoʻjaligi davlat	24,0	16 500,0	“BOBURJON” MCHJ

Karauzak davlat o'rmon xo'jaligi	95,6	95 600,0	"Lanekst Rakt" QK MCHJ
Muynoq davlat o'rmon xo'jaligi	38,5	38 515,0	СП ООО "Нукус Ликорисе" СП ООО Ланехтракт
Kazoxdaryo davlat o'rmon ovchilik xo'jaligi	15,0	15 000,0	BIO LIQUORICE EXTRACT
Bekobod davlat o'rmon xo'jaligi	6,0	600,0	Lakkor Intennatsional MChJ
JAMI:	9	512, 632	515

Farmatsevtika korxonalarini kapitalining 35,7%ni xorijiy ham-korlar ulushi, 64,3% ni mahalliy ishtirokchilar ulushi tashkil etadi. Biz buni yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgan shirinmiya dorivor o'simligi misolida ham ko'rishimiz mumkinki, mamlakatimizda yetishtirilgan dori-vor o'simliklarning asosiy iste'molchisi farmatsevtika korxonalarini hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishni 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida o'rmon xo'jaligining ulushini sezilarli darjada oshirishga turtki berishi mumkin bo'lgan dorivor o'simliklar yetishtirish qayta ishlash sohasiga alohida urg'u berish.

QQR va viloyatlarda dorivor o'simliklar plantatsiyalarini barpo etish va mahsulot ishlab chiqarish hajmini 2 barobarga oshirish. Qishloq xo'jaligi yerlarida dorivor o'simliklar maydonlarini 30,0 ming gektarga oshirish, tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli kreditlar ajratish, madaniy plantatsiyalar yaratishda suv chiqarish va yerlarni o'zlashtirish uchun Respublika byudjetidan subsidiya ajratish, hokimliklar tomonidan dorivor o'simliklar uchun yer maydonlari ajratish prognoz rejalarini belgilash.

Dorivor o'simliklar resurslaridan oqilona foydalanishning asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

Mahsulot tayyorlashni to'g'ri rejalash va joyini aniqlash.

Ayrim mintaqalar, tumanlar, joylar uchun uzoq vaqtga mo'ljallangan resursshunoslik tadqiqotlari dasturini yaratish va dorivor o'simliklar tayyorlash joyi, hajmini nazorat qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Dorivor o'simliklarni biologik o'ziga xosligini hisobga olish orqali o.

Dorivor o'simliklardan oqilona foydalanishda, ularni biologik rivojlanish qonuniyatlari bilimini bilish, terilgandan keyin qancha muddatda bu o'simlik yana o'zining tabiiy zahirasini tiklanish muddatini aniqlash, shu o'simlikdagi biologik faol, ta'sir qiluvchi moddasini hosil bo'lishi va to'planish dinamikasiga atrof-muhitni ta'sirini hisobga olish. bular o'simlik mahsulotlarini yig'ishni optimal

muddati, usuli va sharoitini aniqlash, shu bilan birga tayyorlash ishlarini samarali bo'lishiga olib keladi.

Aholi va ixtisoslashgan klasterlar o'rtasida manfaatli shartnomalar tuzishga takliflar berish.

Tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olib, madaniy holda faol yetishtiriladigan dorivor o'simliklarning agrotexnologik xaritalarini ishlab chiqish. Dorivor va ziravor o'simliklardan eksport salohiyati yuqori bo'lganlarini tahlil qilib, agrotexnologik xaritalarga kiritish.

O'rmon xo'jaligida kovrak o'simligi tabiiy zahiralardan oqilona foydalanish, yetishtirish hamda eksport qilishni hajmlarini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ёввойи ҳолда ўсувчи доривор ўсимликларни муҳофаза қилиш, маданий ҳолда етиштириш, қайта ишлаш ва мавжуд ресурслардан оқилона фойда-ланиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2020 йил 10 апрелдаги ПҚ-4670- сонли Қарори
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг «Ўзбекистон Республикаси Ўрмон хўжалиги давлат қўмитаси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида»ги 2017 йил 11 майдаги ПҚ-2966-сон қарори.
3. Эргашев Р.Х. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти – (дарслик), - Т.: “Иқтисод молия” 2018, 402 б.
4. Тўхтаев Б.Ё., Махкамов Е.Х. ва бошқалар. Доривор ва озуқабоп ўсимликлар плантацияларини ташкил этиш ва хом ашёсини тайёрлаш-(йўриқнома), - Т.: 2015 йил.
5. Саттаров Ж.С. Биоразнообразие и ресурсы дикорастущих лекарственных растений в некоторых районах Центрального Таджикистана- (диссертация “доктор наук”) 2020 г.
6. Почупайло О.Е. Государственная поддержка предпринимательской деятельности в сфере производства лекарственного растительного сырья (на примере Республики Крым) - (автореферат) - “Симферополь” 2019 г.
7. Эргашев Р.Х. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти – (дарслик), - Т.: “Иқтисод молия” 2018, 402 б.

Internet saytlari

8. <https://givoyles.ru>
9. <http://lex.uz>
10. www.wikipedia.org
11. 11 . <http://scholar.google.com>
12. www.scopus.com
13. 19. www.elibrary.ru